

ANDIJON VILOYATIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rahmatullayeva Feruza

Qo‘qon universiteti andijon filiali “Iqtisodiyot va moliya” kafedrası v.v.b. dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20755942>

Annotatsiya. Ushbu tezisdá Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligining samaradorligini baholash, tarmoqlar kesimidagi o‘shish sur‘atlari tahlili hamda kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan. Yoshlar tadbirkorligi integral ko‘rsatkichlari asosida baholash yondashuvi, sohalar bo‘yicha dinamik o‘zgarishlar va ularning iqtisodiy omillarga bog‘liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va global iqtisodiyot sharoitidagi ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, integral ko‘rsatkich, iqtisodiy o‘shish, tarmoqlar tahlili, Andijon viloyati, raqamlashtirish, investitsiya, kichik biznes.

Kirish

Yoshlar tadbirkorligi milliy iqtisodiyotning muhim segmentlaridan biri bo‘lib, u bandlikni ta‘minlash, innovatsion rivojlanishni kuchaytirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Andijon viloyatida kichik biznes va yoshlar tadbirkorligining faolligi iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar tadbirkorligi samaradorligini baholash integral ko‘rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy qism

1. Yoshlar tadbirkorligi samaradorligining integral ko‘rsatkichlari

14-jadval

Andijon viloyatida bandlar kesimidagi yoshlar tadbirkorligining samaradorligi integral ko‘rsatkichining me‘yoriy qiymatlar

Integral ko‘rsatkich darajasi	Shkala koeffitsenti
Yuqori	0,85 – 1,00
O‘rtacha	0,72 – 0,84
Past	0 – 0,71

Yoshlar tadbirkorligi faolligini baholash uning ko‘rsatkichlarini viloyat bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

2. Tarmoqlar kesimidagi o‘shish sur‘atlari tahlili

15-jadval

Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligining sohalar kesimidagi o‘shish sur‘atlari

Yil	Jami o‘shish (%)	Xizmat (%)	Qurilish (%)	Yengil sanoat (%)	Oziq-ovqat (%)
2019	10.3	10.2	12.0	6.1	5.6
2020	6.2	14.1	17.9	9.6	15.8
2021	6.8	15.8	12.1	7.0	13.6
2022	9.8	5.5	10.8	11.5	8.0

2023	7.2	5.6	7.3	4.4	14.8
2024	7.0	6.3	6.8	5.6	9.7

Tahlil natijalariga ko'ra, 2019–2024 yillar davomida yoshlar tadbirkorligi tarmoqlarida sezilarli tebranishlar kuzatilgan. 2020 yilda pandemiya ta'siri tufayli umumiy o'sish 6,2% gacha pasaygan bo'lsa, keyingi yillarda tiklanish jarayoni kuzatilgan.

Qurilish (17,9%), oziq-ovqat (15,8%) va xizmat ko'rsatish (15,8%) sohalarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Bu holat investitsiya faolligi va ichki talabning oshishi bilan izohlanadi.

3. Rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlari

Yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Barqarorlik
- Doimiylik
- Inklyuzivlik
- Raqamlashtirish

Ushbu omillar zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

4. Faollashtirish mexanizmi

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmi davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Ushbu mexanizm rag'batlantiruvchi (investitsiya, innovatsiya, moliyaviy qo'llab-quvvatlash) va cheklovchi instrumentlarni o'z ichiga oladi.

Bu tizim iqtisodiy samaradorlikni oshirish va hududiy rivojlanishni muvozanatlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishida tarmoqlar kesimida sezilarli farqlar mavjud. Qurilish, xizmat ko'rsatish va oziq-ovqat sanoati yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lsa, yengil sanoatda nisbatan barqaror, lekin pastroq dinamika kuzatiladi.

Integral ko'rsatkichlar asosida baholash tizimi hududiy tadbirkorlik faolligini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. Kelgusida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda raqamlashtirish, innovatsiya va investitsion muhitni yaxshilash asosiy omillar bo'lib qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznesni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. Toshkent, 2023.
2. Jahon banki ma'lumotlari: Small and Medium Enterprises Development Reports. Washington DC, 2022.
3. OECD. Entrepreneurship at a Glance. Paris, 2021.
4. Porter M. Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2019–2024 yillar.